

**MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARIDAN FOYDALANISH
MASALALARI**

Baltayev Jasurbek Erkinovich


O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va liberallashtirish, samarali soliq-budjet siyosatidan foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvini markazsizlashtirish jarayonini davom ettirish joylarda davlat siyosatini amalga oshirishda mahalliy va hududiy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirishga, respublika davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga bosqichma-bosqich o'tkazishga, shuningdek, hududiy davlat hokimiyati organlarining tuman, shahar hokimiyati organlariga vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Moliya sohasida soha va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy budjetning daromad bazasini kengaytirish zarur. Eng muhimi, tuman va shaharlarda mahalliy budjetlarning kengaytirilishi aholining turmush darajasi va turmush sharoitini, umuman, barqarorlik va osoyishtalikni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak". Hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan hududlarning moliyaviy bazasini mustahkamlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini kengaytirish bo'yicha hududlarning zaxira va imkoniyatlarini ishga tushirish, bu boradagi ishlar ustuvor vazifalardan biri, shuningdek subventsiyali rayonlar va shaharlarda sanoat va xizmatlarning jadal rivojlanishi hisobiga bunday hududlarni qisqartirish hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini markazlashtirishni cheklash hamda bu boradagi vazifalarning bir qismini respublikadan viloyat, tuman darajasiga o'tkazishga asosiy e'tibor qaratilmoqda,

buning natijasida ko'pgina vakolatlar mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga navbatma-navbat o'tkazilib borilmoqda. O'tgan davrda bu sohada ko'p ishlar amalga oshirildi, biroq sohada kelgusida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab masalalar mavjud.

Davlat byudjeti tuzilmasi tarkibidagi mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bog'liq masalalar tadqiq etilayotgan paytda, birinchi navbatda, mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritish, bu boradagi umumiy pozitsiyani shakllantirish talab etiladi. Shu munosabat bilan mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyati hamon iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim. Buni quyida keltirilganlar to'liq tasdiqlaydi:



1-rasm. Mahalliy byudjetlarning tuzilishi tarkibi¹

Mahalliy byudjetlar viloyat, tuman va shahar byudjetlarini o'zida ifoda etib, ushbu byudjetlar mablag'lari mahalliy davlat hokimiyati idoralari tomonidan mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy ahamiyatga doir

t
u
r
l
i

Mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarining davlat byudjeti

¹ Malikov T. S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2010. – 660 bet, 399-bet.

daromad va xarajatlaridagi ulushini hamda uning o'zgarishini tahlil qilish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zaro nisbatini tadqiq etish, shu asosida ularning moliyaviy holatiga baho berish mahalliy byudjetlarning mustaqilligini ta'minlash va oshirishga yo'naltirilgan muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. 2020-2023-yillarda davlat byudjeti daromad va xarajatlarining o'sish sur'atlari mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Bunday holat mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Tegishli yillarda mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi o'rtacha 21,8 foizni, mahalliy byudjetlar xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi ulushi o'rtacha 30,6 foizni tashkil etgan. Mahalliy byudjet xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etishi davlatning asosiy ijtimoiy vazifalarining mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtirilayotganida namoyon bo'ladi (1-jadval).

2020-2023-yillar davomida mahalliy byudjetlar daromadlari 2,2 barobarga, xarajatlari esa 1,7 barobarga ko'paygan. Bunday holat, bir tomondan, so'nggi yillarda mahalliy byudjetlar ixtiyoriga qo'shimcha daromadlarning qoldirilishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, mahalliy byudjet daromadlarining xarajatlariga mutanosib emasligidan darak beradi. Tahlil qilingan yillarda mahalliy byudjetlarning xarajatlari hajmi daromadlariga nisbatan yuqori bo'lgan (2020-2023-yillarda o'rtacha 20811,4 mlrd. so'mga ortgan). O'z navbatida, byudjet qonunchiligiga ko'ra, mahalliy byudjetlar taqchillik bilan moliya yilini yakunlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat byudjeti daromadlari har yili oshib bormoqda. 2020-yildan 2023-yilgacha daromadlar 99,669.0 ga (75% dan ortiq) o'sgan. Bu, iqtisodiy o'sish yoki soliq yig'implari oshishi natijasida bo'lishi mumkin. Mahalliy byudjet daromadlari ham o'sayotganini ko'ramiz. 2020-yildan 2023-yilgacha daromadlar 27,243.1 ga (98% ga yaqin) oshgan. Bu mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishi va mahalliy daromad manbalarining kengayishini ko'rsatadi. Davlat byudjeti xarajatlari ham oshmoqda, 2020-yildan 2023-yilgacha 113,591.3 ga (79% dan ortiq) o'sgan. Bu

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xarajatlarning ko'payishi ijtimoiy dasturlar, infratuzilma yoki boshqa byudjet xarajatlarining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2-jadval

2020-2023-yillarda mahalliy byudjetlar daromadlari miqdori²(mlrd. so'mda)

№	Hududlar	Yillar			
		2020	2021	2022*	2023*
1.	Andijon viloyati	2105,9	2 418,6	3 059,4	3 802,7
2.	Buxoro viloyati	1782,9	2 374,1	2 904,0	3 817,2
3.	Jizzax viloyati	1058,0	1 460,4	1 727,2	2 184,9
4.	Qashqadaryo viloyati	2468,8	2 722,1	3 483,0	4 561,2
5.	Navoiy viloyati	1540,9	1 947,8	2 186,3	2 993,6
6.	Namangan viloyati	1763,0	2 297,1	2 903,2	3 713,4
7.	Samarqand viloyati	2385,6	3 154,8	3 955,8	4 958,8
8.	Surxondaryo viloyati	1605,7	1 993,3	2 466,9	3 042,3
9.	Sirdaryo viloyati	716,5	881,7	1 104,5	1 406,1
10.	Toshkent viloyati	2395,5	3 734,1	4 378,9	5 866,2
11.	Farg'ona viloyati	2677,3	3 665,1	4 242,5	5 437,8
12.	Xorazm viloyati	1302,7	1 743,1	2 220,6	2 719,2
13.	Toshkent shahri	3156,3	4 911,4	6 044,7	7 739,3
14.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2743,9	1 869,3	2 356,2	2 703,3
Jami		27 702,9	35 173,0	43 033,2	54 946,00

* *pragnoz ko'rsatkichlari*

² <https://openbudget.uz> saytidagi tegishli yillar uchun "Fuqarolar uchun byudjet" nashrlari asosida magistrant tomonidan tayyorlangan
www.tadqiqotlar.uz

Mahalliy byudjet xarajatlari 2020-yildan 2023-yilgacha 32,036.1 ga (67.8%) oshgan, ammo 2022-yilda xarajatlar 2021-yilga nisbatan kamaygan. Bu, ehtimol, bir vaqtning o'zida iqtisodiy inqiroz yoki mahalliy rivojlanish dasturlaridagi o'zgarishlarga bog'liq.

Byudjet bo'g'inlari o'rtasida byudjet daromadlarning taqsimoti natijasida 2020-2023-yillarda hududlar mahalliy byudjeti daromadlari miqdori va ularni o'zgarish tendensiyalari quyidagi ko'rinishga ega (2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda mahalliy byudjetlarga moliyaviy erkinlik va mustaqillik berilishi natijasida hududlar mahalliy byudjetlari daromadlari miqdori o'sish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2020-yilga nisbatan mahalliy byudjetlarning jami daromadi 2 barobarga ortgan.

Hududlar bo'yicha xarajatlar ijrosida respublika hududlari mahalliy budjetlari daromadlarini shakllantirish, tafovutlar saqlanib qolmoqda. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zgarish dinamikasini tahlil qilsak, ayrim mahalliy budjetlarda daromadlarga nisbatan xarajatlar miqdori ortib borayotganini ko'ramiz. Bizning fikrimizcha, daromad manbalarini budjetlar o'rtasida taqsimlash quyidagi mezonlarga asoslanishi kerak:

- notekis taqsimlangan soliqlar resurs-soliqlar turli hududlarda respublika budjetining soliqqa tortish bazasiga va markazlashtirilgan qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy barqarorlikka muvofiq, aksiz solig'i to'liq qo'shilishi kerak;

- notekis taqsimlangan soliqlar resurs-soliqlar turli hududlarda respublika budjetining soliqqa tortish bazasiga va markazlashtirilgan qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy barqarorlikka muvofiq, aksiz solig'i to'liq qo'shilishi kerak

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov T. Moliya. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2018. – 268 b.
2. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 800 b.
3. Поляк Г. Финансы. – М.: Юнити-Дана. 2008. – 703 с.
4. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

5. <https://www.mf.uz> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy veb sayti
2. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(5), 1.
3. Jumaniyozov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 1.
4. Jumaniyozov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(05), 30-37.
5. Jumaniyozov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. *Science and Education*, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
6. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 1187-1191.
7. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партисипатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. *Science and Education*, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
8. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyozov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. *Science and Education*, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://opscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
9. Jumaniyozov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. *Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).*

10. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 139-146.
11. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 128-138.
12. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboyev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.
13. Turayevich, J. I., & Akmal o'g'li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING O'RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.
14. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
1. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China's Sovereign Wealth Funds. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 2(1), 1–8.